

## PROFILAKTIKA INSPEKTORI TOMONIDAN NOTINCH OILALAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS JIXATLARI

*Umarov Faxriddin Dilshodjon o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*

*3 o'quv kursi 316 guruh kursanti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola muallif oilaning tinchligi qanchalik ahamiyatga ekanligini, oila jamiyatning bir bo'g'ini sifatidagi mazmunini, profilaktika inspektori tomonidan notinch oilalar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos jixatlarini, profilaktika inspektori tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan o'z fikr mulohazasini bildirib o'tgan.

**Kalit so'zlar:** *notinch oila, ma'naviy tahdid, oilaning tinchligi, huquqbuzarlik, zo'ravonlikdan himoya qilish, ayollar daftari.*

**Аннотация:** В данной статье автор показывает насколько важен покой в семье, значение семьи как звена общества, особенности деятельности инспектора по профилактике, работающей с неблагополучными семьями, его мнение о работе, которую следует осуществлять инспектором по профилактике.

**Ключевые слова:** *неблагополучная семья, моральная угроза, семейный мир, преступление, защита от насилия, женская тетрадь.*

**Annotation:** In this article, the author shows how important the peace of the family is, the meaning of the family as a link of society, the specific aspects of the activities of the prevention inspector working with troubled families, his opinion on the work that should be carried out by the prevention inspector. said.

**Key words:** *troubled family, moral threat, family peace, crime, protection from violence, women's notebook.*

Ma'lumki, jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo'lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo'rg'onining mustahkamligi va unda ma'naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg'ayadi.

Shunday ekan, jamiyatda yuzaga kelayotgan oilalar qanchalik mustahkam qurilmoqda, poydevori chi? Darhaqiqat, oilaning barpo etilishida kimlar yoki nimalar muhim rol o'ynaydi, tashqi ta'sirlar chi? Mavjud oilalar va yangi barpo etilayotgan kichik bir oila o'z mavqeini qanchalik asramoqda? Oila – muqaddas qo'rg'on, oila – ma'naviy kamolot maskani va boshqa bir qancha so'z va iboralar bilan oilaning mavqeini belgilaymiz. Albatta, jamiyatda namunali oilalar talaygina. Namunali oila

deganda, oilaviy munosabatlar ma`naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan, nurli, piru badavlat otaxon va onaxonalar ko`z oldimizga keladi. Ularning borligi boshqalar uchun ibrat maktabidir. Ammo, afsus, bizni o`ylantirgan masala bu – oila qo`rg`onining buzilishiga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan bir qancha tashqi va ichki omillardir.

Tashqi omil sifatida g`arbona yashash tarzining o`zlashtirilishi bo`lsa, ichki omil sifatida esa, yoshlarning oilaga ma`naviy jihatdan etarli tayyorgarlikka ega bo`lmaslik masalasidir. Ma`naviy tahdid sifatida baholanayotgan g`arbona madaniyat, g`arbona yashash, g`arbona muomala, g`arbona hayot tarzi va hokazolar bizning muqaddas qo`rg`onimizga qanchalik salbiy ta`sir ko`rsatayotganini etarli darajada o`ylab ko`rmayapmiz. Oddiy hol sifatida qabul qilayotganimiz turli filmlar, seriallar, kliplar aslida shovqinli, jangari, toshbag`ir bir hayot tarzini bizga in`om etmayotganmikin. G`arb seriallarida kelinini erkalayotgan qaynota, turmush o`rtog`ini ochiqdan ochiq haqorat qilayotgan xotin yoki uning eriga xiyonat qilayotgan dugona, yarim yalang`och qizdan mamnun ona, oiladan xalovat topmagan farzandning giyohvand moddalarga berilishi va boshqalar bizning farzandlarimiz tarbiyasiga, oilaviy muhitning nosog`lom bo`lishiga olib kelmasmikin. Aksariyat oilalar bunday hayot tarzini qanday bo`lsa, shundayligicha o`zlashtirmoqda. Ko`p hollarda, bizning mentalitetimizga, yashash tarzimizga to`g`ri keladimi, yo`qmi, buni o`ylab ko`rmayapmiz. Natijada oilalar arziyas muammo oldida dosh berolmay, engil elpi, havoyi bir nafs qurboniga aylanishmoqda. G`arb taklif etayotgan xudbinlik, toshbag`irlik, egoizm kabi illatlarni aksariyat insonlar yashashning mazmuni sifatida olmoqda. Buning oqibatida ayol kimningdir qo`g`irchog`iga aylanmoqda, go`daklar mehordan mosuvo holda etimlikka mahkum etilmoqda. Bu kabi misollarni yana qator keltirish mumkin. Oila tinchligiga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan bunday muammolar aslida har bir vijdonli insonning qalb og`riqlari emasmi? Yong`in chiqsa, ho`lu quruq barobar yonadi deganlaridek, oila buzilsa, yoinki farzand axloqsiz chiqsa, birgina inson emas, atrofdagi insonlar, boringki, butun jamiyat hayotiga, uning farovonligiga, tinchligiga rahna solingan bo`ladi. Shunday ekan, oila qo`rg`onini asrash, uning mustahkamligini ta`minlash uchun nimalarga e`tibor berish lozim. Bizningcha, hamma narsaning asosi ma`naviy etuklikka borib taqaladi. Axloqimizga tashqi jihatlar salbiy ta`sir ko`rsatayotgan ekan, ulardan himoyalalanishning yagona yo`li ham ma`naviy etuklikdir. Ma`nan etuk inson atrofdagi har bir narsaga befarq qaray olmaydi. Ma`nan boy inson g`arbona yashash, g`arbona madaniyatni qanday bo`lsa, shundayligicha o`zlashtirmaydi, aksincha o`zbekona, milliy xususiyatlarimizga uyg`unlashtiradi. Oila deb atalmish muqaddas qo`rg`onni asrab avaylashga intiladi. Oilaning bir butunligini tashkil etayotgan er va xotin ma`nan boy, aqlan kamolga etgan bo`lsa, har qanday zararli ta`sirlarni oldindan ko`radi va oilasini himoya qila oladi. Ayni paytda, farzandlar tarbiyasiga ham shu mezonlardan turib yondashadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyati oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishning umumiy choralariga kiradi.

Profilaktika xizmatlari tomonidan oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning umumiy tartibdagi profilaktikasi faoliyatini tashkil etishning asosiy maqsadi bo'lib, ma'muriy hududlarda yashovchi oilalar haqida tezkor vaziyatda xabardor bo'lish, sodir etilishi mumkin bo'lgan nizolarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, notinch oilalardagi ijtimoiy ruhiy-muhitni sog'lomlashtirish hamda aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Ichki ishlar organlarining tayanch punkti profilaktika inspektorlari bevosita o'zlariga birlashtirilgan ma'muriy hududlarda oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini amalga oshirish borasida, eng avvalo, shaxs huquqlari va erkinligini ta'minlash, oilaviy-maishiy hayotda yuzaga kelgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, ayniqsa, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida aholi o'rtasida targ'ibot-tushuntirish ishlarini olib borish, oila-turmush munosabatlari doirasida shaxsga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish choralarini ko'rish hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish borasida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, fuqarolik jamiyatiyati institutlari va keng jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etadi. Shuningdek, oiladagi zo'ravonlikdan jabrlangan hamda oila-turmush sohasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, bunday huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibda tarbiyaviy profilaktik ishlarni amalga oshiradi.

Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyati dastlabki profilaktika hisoblanadi. Dastlabki profilaktika shaxsda jamiyatga zid qarashlar shakllanishi, uning axloq va huquq normalariga zid qilmish sodir etilishining oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonidir.

Profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan ushbu yo'nalishda profilaktika faoliyatini tashkil etilishi birinchidan, jamiyatga zid turmush tarzi kechiruvchi shaxslar hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni o'z vaqtida aniqlashga, ikkinchidan, g'ayriijtimoiy hodisa va jarayonlar, voqea va hodisalardan xabardor bo'lishga, uchinchidan, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga, to'rtinchidan, ushbu turdagi huquqbuzarliklarni bartaraf etish,

kuchsizlantirish va oldini olishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy vositalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishning yakka tartibdagi chora-tadbirlari – huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo'lgan, oilada zo'ravonlik sodir etishga moyil bo'lgan yoki sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatdir.

Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishning yakka tartibdagi chora-tadbirlari muayyan shaxsning xislatlari, uning ijtimoiy muhitiga xos jihatlar, ijtimoiy-maishiy shart-sharoiti va turmush tarzi, g'ayriijtimoiy xulq-atvori, maishiy zo'ravonlik sodir etishga moyilligi, shuningdek, u oila-turmush doirasida sodir etgan huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalovchi boshqa omillar bilan belgilanadi.

Shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvori, uning huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi yoxud u huquqbuzarlik sodir etganligidan dalolat beruvchi ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi maishiy zo'ravonlikning oldini olishning yakka tartibdagi chora-tadbirlarini qo'llash uchun asos bo'ladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishning yakka tartibdagi profilaktikasi shaxs ijtimoiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari, turmush tarzi, g'ayriijtimoiy xulq-atvori, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi hamda sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi.

Jinoyatlarning yakka tartibda oldini olish deb, muayyan jinoyat sabablarini va uni sodir qilishga ko'maklashgan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf qilish, jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash va ular bilan zarur tarbiyaviy profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazish bo'yicha amalga oshiriladigan maxsus kriminologik darajadagi jinoyatlarning oldini olishdan iborat faoliyat deb qayd etib, ushbu jarayonni “ogohlantirish”, “bartaraf qilish”, “to'xtatish” (to'sqinlik qilish) kabi bosqichlarda amalga oshirilishi tushuniladi.

Yakka profilaktika jinoyatlarning oldini olishning ijtimoiy darajasiga, miqyosiga (hajmiga), hududiy miqyosiga, ta'sir qilish ob'yektiga, mazmuniga qarab tasniflab, jinoyatchilikning miqyosiga qarab o'z navbatida umumiy, maxsus va individual choralarga bo'linadi.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi muhim ahamiyat kasb etib, odamning yashashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, shaxsning muayyan jinoyat sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xususiyatlarni o'rganish bilan jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratiladi.



**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Пулатов Ю.С., Исмаилов И., Қурбонов А. Ички ишлар органларида бошқарув асослари: Дарслик. – Т.: ЎзР ИИВ Академияси, 2005. – Б. 104. Зарипов З.С. Профилактическая функция следственных подразделений органов внутренних дел. – Т., 1980. – С. 57.
2. *Афанасьев В. А.* Организация работы участкового инспектора милиции М. 1990., С.-38.
3. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси " Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида" ги қонуни
4. Қаранг Ўзбекистон Республикаси"Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги қонуни